

МАКТАБЛАРДА ИНКЛЮЗИВ ТА'ЛИМНИ РИВОЈЛАНИШ УСУЛЛАРИ

*To'raqulova Charosxon Ikromjon qizi
Qo'qon universiteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lismizni ya'ni inklyuziv ta'lismizning takomillashuvi, va bu ta'lismizni maktab tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, inklyuziv ta'lismizni rivojlanishiga maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ta'lismiz, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat

Аннотация. В данной статье внедрена новая система образования в нашей стране, то есть совершенствование системы инклюзивного образования, а также внедрение этой системы образования в школьных организациях, приняты новые решения и постановления и поставлены задачи по развитию системы инклюзивного образования. система инклюзивного образования уйдет.

Ключевые слова: Образование, образование, инклюзивность, развитие, совершенствование, движение

Abstract. In this article, the new educational system introduced in our country, that is, the improvement of the inclusive education system, and the implementation of this educational system in school organizations, new decisions and decrees have been adopted and assigned tasks for the development of the inclusive education system. will go.

Keywords: Education, education, inclusive, development, improvement, movement

Nogiron - jismoniy, aqliy, psixologik va hissiy faoliyatning izdan chiqishi, shikastlanishi natijasida hayot faoliyatining cheklangan munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan va ijtimoiy yordam hamda himoyaga muhtoj bo'lgan shaxs tushuniladi. "Nogiron" atamasi hozirgi kunda eskirib qolgan va qo'pol bo'lgan so'z hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday shaxslarga nisbatan "imkoniyati cheklangan insonlar "yoki "nogironligi bo'lgan shaxslar" deb murojaat qilish to'g'ri bo'ladi. Hozirgi kunda ko'plab davlatlar qatori O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lismiz va tarbiya olishlari, tibbiy muolajalar olib borishlari uchun imkoniyatlarni yaratib kelinmoqda va bunday insonlar va bolalarning haq-huquqlari qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo'yilgan va himoya qilinmoqda.

BMT ning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning xalqaro standartlari, shuningdek, "nogiron" so'zi o'rniga "nogironligi bo'lgan shaxs" atamasidan foydalanishni nazarda tutuvchi "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari

to'g'risida" gi Qonun yurtimizda yuqoridagi toifaga mansub shaxslarning huquq va manfaatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish davlat siyosati darajasida ko'tarilmoqda. 2020-yil 13-oktyabrdan "Alohibda ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarorida 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasiga O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohibda ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha qator vazifalar belgilab berildi. Ushbu qarorda ham alohibda ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, tajriba-sinov tariqasida shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda inklyuziv ta'lim joriy qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar oyida "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining 66-maqсадида belgilangan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish" uchun nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish masalalariga alohibda to'xtalib o'tilgan. Saida Mirziyoyevaning tashabbusi bilan bu yil "Ko'ngil ko'zi" xayriya tadbiri doirasida uch ming nafardan ortiq ko'zi ojiz va zaif ko'rvuch bolalar tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, ko'rish qobiliyatini yaxshilash imkoniyati bo'lgan har bir bolaga yordam berish rejalashtirildi.

Shu jumladan 2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasiga O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohibda ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutadi:

- alohibda ta'limga muhtoj bolalar o'qiydigan ta'lim muassasalarini binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- ushbu ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, o'quv qurollari, turli kasblar bo'yicha o'qitish uchun moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, ta'lim muassasalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko'tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqalar), shuningdek, tegishli xodimlar bilan ta'minlash (maxsus o'qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo'yicha mutaxassislar);

• alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning moslashuvi va integratsiyalashuvi uchun maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash va boshqalar.

Qaror bilan umumiy ta'lim muassasalarida alohida ta'limga muhtoj bolalarni inklyuziv o'qitish to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. U quyidagilarni nazarda tutadi:

- inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari;
- maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tuzatish sinflarini tashkil etish tartibi va alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun o'quv jarayoni;
- bolalarmi inklyuziv ta'lim va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflariga qabul qilish tartibi;
- inklyuziv ta'lim va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflarida ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar.

Bundan tashqari:

- jismoniy, aqliy, hissiy yoki aqliy nuqsonli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari;
- sanatoriy-kurort tipidagi ixtisoslashtirilgan ta'lim davlat muassasalari;
- jismoniy, aqliy, sezgi yoki aqliy nuqsonli bolalar, shuningdek, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun yakka tartibda uyda ta'lim olish tartibi to'g'risidagi nizom ham tasdiqlandi.

Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi
- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o'qishga bo'lgan ehtieji va qiziqishlari ortadi;
- O'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
- Yotsirash, yakkalanish kabi xususi yatlari yo'qoladi.

Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- O'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;
- Tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;
- Ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish –insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;
- O'quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat,
- o'zaro hurmat tarbiyalanadi
- Yoramga muhtoj insonlarga e'tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar
- Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lim

tashkilotlari kun sayin ko'payib va takomillashib bormoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'lismogron bolalar ehtiyojlarining xilma-xilligi xizmatlarning uzlusizligi, birinchi navbatda bunday bolalar uchun eng maqbul bo'lgan ta'lismuhiti bilan mos kelishi kerakligini anglatadi. Ushbu printsip barcha bolalar yashash joyidagi mакtabning ijtimoiy va o'quv hayotiga qo'shilishi kerakligini bildiradi. Inklyuziv maktablar chet eldag'i odatiy maktablardan farqli ravishda ta'lismogron yutuqlariga erishishga qaratilgan. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda ham inklyuziv ta'limga bo'lgan e'tibor katta. Maktab tizimida inklyuziv ta'limga ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lismogron olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi «Alovida ta'lismogron ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lism-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5044711>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar oyidagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
3. SI Jumanova, G Mullaboyeva. Bolalarni maktab ta'limga tayyorlashda Sharq va G'arb allomalarining qarashlaridan foydalanish Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 445-451
4. SI Jumanova, D Asqarova.(2023). Maktabgacha ta'limga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kreativ fikrlashini o'stirishda stem ta'liming o'rni Educational Research in Universal Sciences 2 (15), 377-381
5. Jumanova , S. (2023). AUTUMN MOTIF IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(2), 29.
6. Jumanova, S. (2022). Landscape in Usmon Azim" Bakhshiyona". EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 169-172.
7. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
8. Ikromjonovna, J. S. (2023). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHATLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 661-663.
9. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning o'rni. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 806-808.
10. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta'lismogron texnologiyasi” o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil
11. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/10/18/inclusive-edu/>